

DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINING BARCHA SOHALARINI
LIBERALLASHTIRISH, ISLOH QILISH, VA MODERNIZATSIYALASHDA
DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINING ROLI.

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar Fakulteti

Siyosatshunoslik yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya : Mazkur taqdimot davlat va jamiyat hayotidagi barcha sohalarni isloh qilish, liberallashtirish va modernizatsiyalashtirish jarayonida davlat va huquq nazariyasi faning o'rnini, bu jarayonga beradigan yechimlarini, usullarini va bu masalani hal qilish metodikasini, yo'llarini berishini ifodalaydi. Taqdimot markazida muhim jihat bu davlat va huquq nazariyasi fanining imkoniyatlarini davlat va jamiyat hayotida qanday fundamental o'ringa ega ekanligini ko'ratadi.

Kalit so'zlar: Davlat va huquq nazariyasi, davlat, jamiyat, metodlar, usullar, liberallashtirish, isloh qilish, modernizatsiyalash, tahlil.

Davlat tushunchasi: Umumijtimoiy mazmunda – bu muayyan hududda oliy hokimyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy –siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turuvchi siyosiy tashkilot. **Yuridik mazmunda** – bu muayyan hududda ommaviy hokimyatni amalga oshiradigan, umummajburiy normalar o'rnatadigan va suvirenitetga ega bo'lgan siyosiy tashkilot. **Sinfiy mazmunda** – iqtisodiy va siyosiy jihatdan hukmron bo'lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilot.

Jamiyat tushunchasi: Tor ma'noda – kishilarning ma'lum bir maqsad yo'lida birlashgan uyushmasi, bu kishilar o'rtasidagi o'zaro turli xil (iqtisodiy, oilaviy ma'naviy, jamoaviy, diniy, va h.k) munosabatlar va aloqalarning murakkab tizimi. **Keng ma'noda :** boshqaruv (ijtimoiy hokimyat) va kishilar xulq-atvorini umumiy qoidalar yordamida tartibga solish (ijtimoiy normalar) ning muayyan tizimi.

Liberalizm : Odamlarning o'zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy nazariya.

Isloh: Tuzatish, yaxshilash degan ma'noda qo'laniladi. Isloh qilish degani muayyan soha yoki tarmoqqa o'zgartirish kiritish, yaxshilash tubdan yangilash degan tushunchani ifodalaydi.

Modernizatsiyalash: Biror soha yoki tarmoqni yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Bu tushunchada ko'roq zamonviylashuvga ko'proq e'tibor beriladi.

Davlat va jamiyat hayotidagi sohalarni isloh qilish, modernizatsiya; ashuvini va liberallashtirishni ta'minlash ko'p tomonlama davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning

legal va legitimlik darajasini oshiradi. Bu esa davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi va samaradorligini ta' minlaydi. Bu jarayon birmuncha murakkab ham hisoblanadi. Davlat va jamiyat ko'p jihatdan bir biriga bo'g'liq hisoblanadi. Sababi, davlatning boshqaruv aparati demokratiya nuqtai nazaridan xalq manfaat va ehtiyojlariga qaratilgan. Jamiyat hayotini liberallashtirish va modernizatsiyalash davlat uchun ham ichki va tashqi boshqaruvda sifat va miqdor samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umumiy	O'xshash	umumiy
Davlat	Davlat/jamiyat	jamiyat
Boshqaruv mavjud	Huquq bor	Uyushma va guruh
Majburiylik bor	Manfaatlar bor	Ixtiyoriylik bor
Itoitlilik bor	Talab/ ehtiyojlar	Kurashuvchanlik

Asosiy qism:

Davlat va huquq nazariyasining funksiyalarida davlat va jamiyat hayotidagi barcha sohalarni isloh etish, modernizatsiyalash, liberalashtirish masalasi:

1.Ontologik funksiyasida- Davlat va jamiyatni isloh qilishning ahamiyatini ijtimoiy munosabatlarning barqaror dinamikasini ko'rsatib berad. Bu orqali jamiyat va davlat o'rtasida gi munosabatlarni nima uchun liberallashtirish, isloh qilish, modernizatsiyalashtirilishi ko'rib chiqiladi. Bu qonuniyatlarning asosi dialektik qonuniyatlarga bo'ysinadi. Ya'ni bu jarayonning uzluksizligini ta'minlash yuqoridagi uchlikning " isloh qilish ", liberalashtirish", " modernizatsiyalash" ko'rsatkichlarini ochib beradi.**M:** Singapurda davlat fuqarolik xizmati davlat va xalq uchun yuzaga kelganligini fuqarolik va davlat xizmatlarida namoyon qiladi

2.Gnesologik funksiyada- davlat va jamiyat bu ikki fenonemning tabiatini, real muhitini ochib beradi . Takidlash joizki , davlat ham, jamiyat ham bir –biriga bog'liq. Sababi bu ikki tushuncha uzviy bog'liqligi davlat boshqaruvi ijtimoiy munosabatlar va davlatning tashqi munosabatlarini tartibga solish uchun amalga oshiriladi. Jamiyatni isloh qilish va zamonaviylashtirish davlatning real muhitining asosi hisoblanadi. Bu jarayon targ'ibotlashtirilgan shaklga ega bo'lganligi joiz ham davlat va jamiyatning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib beradi.**M:** Skandinaviya davlatlarida real muhit aniq ko'rinadi.

3.Evristik funksiyada (nazariy bilish)- Davlat va jamiyat o'rtasidagi ushbu uchlikni ta' minlash, manfaatli rivojlanishni ochib beradi hamda buning asosiy negizi hisoblangan davlat va huquqning asl mohiyatini namoyon qiladi.**M:** Rossiya Federatsiyasida gi islohatlardan xalqning xabardorligi va bilishi va shu asosdagi mitinglari

4. Metodologik funksiyada- davlat va jamiyatni rivojlanish metodologiyasini ko'rsatib o'tadi . Buning uchun zarur metodlarni kategoriyalarni va asosiy yo'nalishlarni davlat boshqaruviga olib kiradi. B u tartiblashtirilgan ya'ni tizimli xarakterga ega . boisi, bunda muayyan qolib asosida amalga oshiriladi. **M:** Keng strategiyalar ishlab chiqish, muayyan modellar, asosiy konsepsiya va tendensiyalar.

5.Prognozlash funksiyasida: davlat va jamiyatni yangilash va zamonaviylashtirish kelajakda qanday natijalarga olib kelishi, amalda qanday ishlashi, oqibati qanday natijalar bilan tugallanishi ochiq oydin ko'rsatiladi.**M:** O'zbekiston respublikasida " O'zbekiston - 2030" strategiyasi

6. Siyosiy- boshqaruvlik funksiyasida: davlat va jamiyat boshqaruvida boshqaruv samaradorligi, ochiqligi, tejamkorligining namoyon bo'lishi uchun avvalo davlat va jamiyatni yangilash va zamonaviylashtirish asosida soha va tarmoqlar dasturini ilmiy asoslash zarur hisoblanadi. M: Janubiy Korea davlatida boshqaruvda tizimli ilmiy asoslar mavjudligini taraqqiyoti bilan asoslashi

7. Mafkuraviy jihatdan buni ta'minlash: Bu avvalo muhim siyosiy tartibot doirasida amalga oshirilad. Ya'ni demokratik tartibot shakli qo'llanilayotgan davlatlarda bu sohaviy va tarmoq ishlash prinsiplarini ta'minlashda liberallashtirish, isloh qilish, modernizatsiyalashjamiyat uchun muhim'oyaviy xarakterga ega hisoblanadi. M: AQSHning davlat dasturida liberal g'oyalarni keng targ'ib qilishi.Davlat va huquq nazariyasi funksiyalarining formulasiga qo'yish orqali davlatning va jamiyatning hayotidagi barcha sohalarni isloh qilish, liberallashtirish ochiq oydin ko'rinadi.

Davlat va huquq nazariyasi metodlarida ushbu masalani hal etish usullari:

Eng umumiy metodlari : Metafizik va dialektik metodlari-bunda metafizik metod hozirda mavjud emas ya'ni buni biz antic davr metodiga qo'yish mumkin. Sababi hozirda dialektik metodni makon va zamon talabi va ehtiyoji asosida yuzaga kelgan . Agar davlat va jamiyatda mavjud sohalarni isloh qilish va liberallashtirish, modernizatsiyalsh dialektikaning asosiy metodi hisoblanadi. Shu boisdan ham davlat va huquq nazariyasi buning fundament g'oyasini ta'minlab beradi.M: O'zbekistonning 1991- 2000- 2010- 2017- 2023- va kelajakdagi strategiyasi ushbu dialektikaning asosi hisoblanadi.

Umumilmiy metodlarda : davlat va jamiyat sohasini isloh qilish va yangilash va joriy etish analiz , sintez, induksiya va deduksiya tizimli funksiyanal metodiga tayanadi. Bu orqali biz davlat va jamiyatni moderniztsiya qilishda unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muommolar va kamchiliklar yuzga kelishi ko'zda tutilsa aniqlashni ko'rsatadi.M: Umumiy va xususiy tomonlarini ko'rsatib beradi , tizimlarga achratilganda muhit amaliyot natijalarini namoyish qiladi.

Xususiy metodlar; bu jarayonda davlatning jamiyatning statistikasi va boshqa davlat jamiyatlari bilan qiyoslash , ular o'rtasidagi farqning nimadaligi binda sotsiologik taqqiqotlarning jihatlarini ochib beradi ijtimoiy munosabatlar va tartibotlarida huquqiy vq yuridik jihatlarini ko'rsatib beradi. M: bu ko'p jihatdan davlatning hozirgi ko'rinishi davlat va jamiyat nuqtai nazaridan ochib beadi.

Davlat va huquq nazariyasi va markazida davlat va jamiyatni isloh qilish, liberallashtirish , modernizatsiyalashjarayonlarining aks etishi.

Davlat va jamiyat munosabatlari ko'p jihatdan mamalakatdagi muhim prinsio, norm ava dasturlarga ham bog'liqdir.M: 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi:

Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni

ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhda tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnihilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida:

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilganligi:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

Davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini, davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarlik, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish hamda iktisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichmabosqich qisqartirish orqali isloh qilish. Globallashtirish va tezkor rivojlanish sharoitida davlat kurilishini takomillashtirish, davlat boshqaruvini jamiyat taraqqiyotining bugungi ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish o'ta dolzarb vazifa sifatida

maydonga chiqmoqda. Mamlakatimiz ravnaqini ta'minlash, jamiyatni ijtimoiy-siyosiy boshqarish, shu jumladan, unga davlat hokimiyati vositasida ko'maklashuv mexanizmlarini takomillashtirish yangi-yangi imkoniyatlarni izlashni taqozo etadi. Mustaqillikka erishgach, jamiyat va davlat hayotining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash yo'lidan borib, mamlakatimiz o'z Konstitutsiyasini qabul qildi, uning zamirida milliy qonunchilik tizimi shakllandi. Konstitutsiya va qonunlar davlat va jamiyat qurilishini demokratlashtirish va liberallashtirishning huquqiy asoslarini tashkil etdi. Avvalo, davlat organlarini shakllantirish va faoliyat yuritishi sohasiga hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipi joriy etildi: hokimiyat tuzilmalarining vakolatlari samarali konstitutsiyaviy mexanizm asosida mutanosib holga keltirilib, ularning faoliyati inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirildi. Amalga oshirayotgan konstitutsiyaviy modernizatsiya qilish va davlat qurilishi sohasidagi izchil islohotlar natijasida ratsional davlat boshqaruvi tizimi shakllandi, hokimiyat tuzilmalari o'rtasida vakolatlarning mutanosib taqsimlanishiga erishildi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida yurtimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida salmoqli islohotlar amalga oshirildi. «Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e'tibor berildi»

Davlat boshqaruvida jamiyatgarahbarlik qilish bilan bog'liq siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni haetga jorii etishga io'naltirilgan ma'murii-tashkili faoliyat muhim o'rin tutadi. Bu davlat boshqaruviga siyosiy mazmun baxsh etadi. Konsepsiyada jamiyatimizning istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarni belgilash barobarida, bu boradagi muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz fuqarolik jamiyati institutlarini, sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslari ilgari surildi. Jamiyat va davlat qurilishi sohasida parlament tizimini rivojlantirish, kuchli ijro hokimiyati, mustaqil sudni shakllantirish, ko'ppartiyaviylikni vujudga keltirish, mustaqil fuqarolik jamiyati institutlarini va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish hamda ular faoliyatining kafolatlarini kuchaytirish borasida tub demokratik o'zgarishlar qilindi. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotini va davlat hokimiyati tizimini demokratlashtirish hamda zamonaviy asoslarda modernizatsiya qilish bugungi taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishini tashkil etmokda. Davlatchilik tizimi, hokimiyatning mazmuni, faoliyat shakllari jamiyatning ob'ektiv taraqqiyot qonuniyatlariga muvofiq belgilanadi. Bu qonuniyat jamiyat hayoti, ijtimoiy boshqaruv shakllarining tobora yangilanib, rivojlanib, ilgarilash yo'lidan borishidir. Davlat hokimiyati institutlarini yanada xalqqa yaqinlashtirish, ularning faoliyatida xalq manfaatlarini izchil tarzda to'liq ifodalash mexanizmlarini yaratish vazifasi mamlakatimiz taraqqiyotidagi hozirgi modernizatsiya bosqichining markaziy yo'nalishini belgilab bermoqda. Ta'kidlash muhimki, Konstitutsiya vositasida davlat hokimiyati bilan inson o'rtasidagi munosabatlar o'zining oqilona huquqiy echimini topayotganini kundalik hayotimiz isbotlab turibdi.

Davlat hokimiyatining demokratikligi, avvalo, Konstitutsiyada inson (fuqaro) huquqlari nechog'lik mukammal aks ettirilgani hamda kafolatlangani bilan izohlanadi. Konstitutsiya davlat hokimiyati faoliyatini boshqaruvchi, tartibga soluvchi, me'yorlovchi, demokratik normalar vositasida cheklovchi siyosiy-huquqiy vosita sanaladi. Davlat funksiyalarini amalga oshirishda xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha joriy etilayotgan islohotlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati natijadorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar yangilanishlar hamda modernizatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi muhim ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Demak, davlat va jamiyat o'rtasidagi uchlik masalasi muhim hisoblanadi uni amalyotga qo'llashda davlat va huquq nazariyasi predmeti va obyektidan kelib chiqib yondashadigan bo'lsak, bu jarayon ayni damda zarur va kerak hisoblanadi. Davlat va huquq nazariyasi fani davlat va huquq masalalariga oid bo'lgan muhim yechimlarni beradi:

1. Davlat va jamiyatni demokratlashtirish metodologiyasini beradi.
2. Davlat va huquq nazariyasi o'z funksiyalarida aynanlashtirib beradi
3. Davlatning kelajagida va hozirda bu qanday masala ekanligini ko'rsatib beradi.
4. Davlatga xos u yoki bu jihatlardan jamiyat manfaatlarining ifodasini toppish imkonini beradi.
5. Davlat tarkida huquqiy bazisni shakllantiradi.
6. Davlat va jamiyat uchun muhim imkoniyatlarini o'z tuqtai nazaridan konsalting sifatida ulashadi.
7. Davlat va jamiyat munosabatlarida muhim huquq tizimini shakllantirishga kata hissa qo'shadi.
8. Davlatning asosiy tendensial xususiyatlarini ifodalaydi.
9. Jamiyatning tashabbuskorlik salohiyatlarini oshorib beradi.
10. Huquqiy ong va madaniyatning asosiy o'rta quyi ko'rinishlarini ta'minlab beradi.

Xulosa: Shu o'rinda takidlash joizki, davlat va jamiyat munosabatlari islohoti murakkab va tizimli masaladir. Ammo bunga biz davlat va huquq nazariyasi tomonidan yondashadigan bo'lsak, unda biz avvalo funksiya va metodlari vazifa va maqsadlari predmet va obyektini nuqtai nazaridan yonshadigan bo'lsak bu muhim masala shu formulalarga solib o'rganiladi. Hamda oson hal etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Odilqoriyev.X.T "Davlat va huquq nazariyasi"-Toshkent:Adolat-2021
2. Mirza axmedov Kamoliddin "Siyosatshunoslik fandan atamalar lug'ati" – Toshkent - 2020
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 158-sonli 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida .

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 4749-sonli 07.02.2017-yildagi O‘zbekiston Respublikasini tanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

5. E.T.Xojiyev, G.S.Ismailova, M.A. Rahimova “ Davlat xizmati” o‘quv qo‘llanma Toshkent- 2015.

6. Sh. A. Sadullayev “ Davlat va huquq nazariyasi” darslik Toshkent -2018.

7. Abduraxmanov Sanjarbek “ Davlat va huquq nazarizasiga doir taqdimotlari” hemis. Student.nuu 2023

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -2023

9. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti farmoni 60-sonli 28.01.2022-yildagi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

Kuchli tomoni:	Kuchsiz tomoni:
<p>1. Aniq, izchil, tizimli ma’lumotlar bilan ta’minlaydi.</p> <p>2. Metodlar va funksiyalr qolipida natija, oqibatlarini aynanlashtiradi.</p> <p>3. Asosiy kamchilik va muommalarni ko’rsatib beradi.</p> <p>4. Davlat va jamiyat hayotidagi barcha sohalarining ahamiyati, kerakligi, muhimligi, zaruriy ko’rinishlarini ifodalaydi.</p> <p>5. Davlat va jamiyatning manfaatlari to’qnashinuvi ochib beradi.</p>	<p>1. Jamiyatdagi masalalarda huquqiy va ijtimoiy bo’shliqlarning yuzaga kelishiga davlat boshqaruvi samaradorligini ta’minlash masalasida muayyan masalada bo’shliqning yuzaga kelishida kamchiliklar ta’siri oshib ketadi.</p> <p>2. huquqiy masalalarda ham muayyan manfaatlarga daxldor kamchiliklar aniqlanishi mumkin.</p> <p>3. Muommo bazisini yechishda amaliy va nazariy imkoniyatlar o’rtasida mutanosiblik holatlarining yuzaga kelishi kuzatilishi mumkin.</p>
Imkoniyatalari :	To’siqlari:
<p>1. Liberallashtirish, isloh qilish, modernizatsiyalash jarayoni uchun mobilizatsion jarayonlarini ta’minlaydi.</p> <p>2. Nazorat qilish uchun alternativ variantlarni ko’rsatadi.</p> <p>3. Demokratik tartibotning doirasini kengaytirib beradi.</p> <p>4. Davlat boshqaruviga samaradorlik impulsini olib kiradi.</p>	<p>1. An’naviy jarayonlar uchun bu birmuncha kamayish jarayoniga olib kelib qo’yadi.</p> <p>2. fan tomonidan qaralsa, boshqa fanlar xususan, texnologiyasi o’z qamrovida olib boriladi.</p> <p>3. Bu jarayon dinamikasining muhim tomonlari va umumiy tomonlarida faqat shu sohaga doirlarini olib kiradi bu jarayonga.</p>

10. M. Qirg‘izboyev. “ Siyosatshunoslikka kirish” o‘quv qo‘llanma Toshkent: Yangi asr avlodi 2013

Davlat va jamiyat hayotini liberallashtirish, modernizatsiyalash va isloh qilishdagi ko’rsatkichlar (SWOT texnologiyada)